



SOME CONSIDERATIONS ABOUT THE OBJECT, SUBJECT AND STRUCTURE OF CULTURAL GEOGRAPHY

Ahrorbek U. Usmonov

Lecturer

Bukhara State Pedagogical Institute

Dilnoza D. Tukhtamuratova

Student

Bukhara State Pedagogical Institute

ABOUT ARTICLE

Key words: geography, object, subject, structure, reasoning.

Abstract: This article discusses some considerations about the object, subject and structure of cultural geography.

Received:

Accepted:

Published:

MADANIY GEOGRAFIYANING OBYEKTI, PREDMETI VA TUZILISHI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Ahrorbek U. Usmonov

O'qituvchi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dilnoza D. Tuxtamuratova

Talaba

Buxoro davlat pedagogika instituti

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: geografiya, obyekt, predmet, tuzilish, mulohaza.

Annotatsiya: Ushbu maqola madaniy geografiyaning obyekti, predmeti va tuzilishi haqida ba'zi mulohazalarni muhokama qilinadi.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОБ ОБЪЕКТЕ, ПРЕДМЕТЕ И СТРУКТУРЕ КУЛЬТУРНОЙ ГЕОГРАФИИ

Ахрорбек У. Усмонов

Учитель

Бухарский государственный педагогический институт

Дильноза Д. Тухтамуратова

Студент

Бухарский государственный педагогический институт

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: география, объект, предмет, структура, рассуждение.

Аннотация: В данной статье обсуждаются некоторые соображения об объекте, предмете и структуре культурной географии.

KIRISH

Madaniy geografiya – yer yuzidagi madaniy farqlarning hududiy jihatlarini tadqiq etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni madaniyat geografiyasi kishilarning hayot tarsi, tashqi olamga munosabatlarini o‘rganish sifatida tushuniladi. Mazkur fan madaniyatning moddiy (kiyim-kechak, arxitektura, oziq-ovqat va b) va nomoddiy (til, din va e’tiqod, xulq-atvor, ta’lim-tarbiya, ta’lim va b) komponentlarning hududiy xususiyatlarini o‘rganishni taqozo etadi.

Madaniyat tushunchasining kelib chiqishi va toponimiga nazar tashlasak, Qadimgi Rimda madaniyat deganda shaxsning tarbiyalanganligi ma’rifatlilik darajasi tushunilgan. Keyinroq madaniyat deganda shaxsning qadr-qimmatini takomilligi tushunilgan. Nemis faylasufi F.Shiller kishilardagi insoniylik fazilatlarini, uning ichki dunyosi, ma’naviylik darajasini madaniyat, deb tushuntirgan. Eslatish lozimki, madaniyat atamasini ilm-fanga amerikalik madaniyatshunos olim Eduard Teylor kiritdi va bu borada dunyoying turli tillarida bir qator kitoblar va 250 dan ortiq maqolalarni nashr etgan.

ASOSIY QISM

Madaniyat tushunchasi faqatgina san’at bilan bog‘liq faoliyatga xos termin emas, garchi musiqiy va badiiy faoliyatni ta’riflash uchun “madaniyat” termini qo‘llanilsa-da, ushbu tushuncha biror-bir ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma’lum davrda qo‘lga kiritgan yutuqlarini ifoda etadi. Madaniyat inson uchun dunyoni bilish, dunyo haqida turli ma’lumotlar axborotlar olish, ularni avloddan avlodga o‘tib borishini ta’minlaydi. Madaniyat so‘zi Madina shahri nomi bilan bog‘liq holda kelib chiqqan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi arabchada “ma”-joy, “din”-e’tiqod: din shahri, e’tiqod markazi, “iy”-...ga xos, ya’ni Madinalik, Shaharlik, Madinaga xos degan ma’nomlarni anglatadi. Lotin tilida madaniyat so‘zi “yetishtirish”, “qayta ishlash” deb tarjima qilinadi. Fanda, odamlar o‘rtasidagi muloqotda madaniyat so‘zi bilan bir qatorda kultura so‘zi ham ishlatiladi. Kultura so‘zi lotincha “culture” so‘zidan olingan bo‘lib, “ishlov berish”, “ekib o‘stirish” ma’nosini bildiradi. Rus faylasuflari N.Berdyayev va V.Rozinovlar “kultura” so‘zining “kult”, ya’ni diniy ibodat, sig‘inish so‘zidan kelib chiqqanligini qayd etganlar.

Madaniyatni tili, dini, an’analari, qadriyatlarini, iqtisodiyoti yaqinligini inobatga olib, milliy, mintaqaviy, davriy jihatdan bir necha turlarga bo‘lish keng tarqalgan. Milliy madaniyatda diniy, axloqiy, badiiy, moddiy, geografik yaqinlik, umummilliylik nazarda tutiladi. Madaniyatni irqiy omilni nazarda tutgan holda bo‘lish holatlari ham uchraydi. Fransuz faylasufi J.Gobino jamiyat, madaniyat, din, til to‘lalgicha irqiy jihatlar bilan bog‘liq, madaniyat mavjud tabiiy sharoit bilan

bog‘liq deb tushuntiradi va Yevropa madaniyatini negroid madaniyatidan eng yuqori, ustun darajada deb hisoblaydi.

Madaniyat geografiyasi tushunchasi – eng avvalo quyidagicha izohlanadi:

1. Madaniyat geografiyasi kishilarning hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarini o‘rganish sifatida tushuniladi.

2. U qanday holatda va nima sababdan turli joylarda turli ko‘rinishlarda ifodalanishini tadqiq qiladigan inson geografiyasi tarkibidagi mustaqil yo‘nalishdir.

3. U madaniyatning moddiy komponentlari va nomoddiy komponentlarini o‘rganishni taqozo etadi.

4. Madaniyatning moddiy komponentlari kiyim-kechak va arxitektura kabi aniq moddiy ko‘rinishdagi buyumlarni qamrab oladi.

5. Madaniyatning nomoddiy komponentlari odamlarning o‘y-fikrlari va g‘oyalari ularning dini va e‘tiqodlarini qamrab oladi.¹

Madaniy geografiya-aholini yashash tarzi va sharoiti, dini, urf-odati, milliy qadriyatlari, dam olishi, davolanishi kabi ko‘pgina sotsial hodisa va voqealarning hududiy tomonlari va xususiyatlari haqida ma‘lumot beradi. U aholining ijtimoiy va tabiiy muhit bilan aloqasini o‘rganadi.

XX asrning o‘rtalarida G‘arbda geografiyaning ijtimoiy yo‘nalishlariga alohida e‘tibor qaratildi. Ijtimoiy geografiyaning an’anaviy (aholi geografiyasi) va yangi (madaniyat geografiyasi, idrok geografiyasi, xulq-atvor geografiyasi) yo‘nalishlari shiddat bilan rivojlandi.

Madaniyat geografiyasining zamonaviy metodologiyasi, asosan, amerikalik tadqiqotchilar tomonidan yaratildi. Xususan, madaniy geografiyaning rivojlanishida amerikalik geograf Karl Sauver² ning xizmatlari katta. Olim zamonaviy madaniyat geografiyasining asoschisi hisoblanadi. Karl Sauer tabiiy geografiya, antropologiya, tarix, arxeologiya va sotsiologiyaga qiziqqan. U yagona geografiya fanining tarafdori bo‘lgan edi. Sauer insonlarning madaniyati tabiiy xilma-xillik bilan chambarchas bog‘liq deb aytadi. Karl Sauerning geografiya haqidagi qarashlari horologiyaga va fransuz inson geografiyasi maktabiga juda yaqin edi.

Karl Sauerdan so‘ng Richard Xartshon va Vilbur Zelenskiy madaniy geografiyaning rivojlanishida katta hissa qo‘shdilar. 1980-yillardan boshlab “yangi madaniy geografiya” kabi yo‘nalish ma‘lum bo‘ldi. U Michael De Serto va Gilles Delenzening statik makon haqidagi an’anaviy tushunchalarini inkor etuvchi tanqidiy nazariyalarga tayanadi.

¹ Dr Christian Sawyer ap* Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. - 2012.. 67-P.244

² Carl Sauer on Culture and Landscape: Readings and Commentaries, edited by William M. Denevan and Kent Mathewson. Baton Rouge, LA: Louisiana State University Press, 2009 ISBN 978-0-8071-3394-1.

Madaniyat geografiya tarkibiga ba'zi asosiy madaniy hodisalarga til, din, turli iqtisodiy va davlat tuzilmalari, san'at, musiqa va boshqa madaniy jihatlar kiradi.

Madaniyat geografiyasi tarkibi jihatidan ikki qismga bo'linadi. Ular tarmoq sohalari va kompleks yo'nalishlari bo'lib, mantiqan bir-birini to'ldiradi. (1-rasm)



1-rasm. Madaniyat geografiyasi tuzilmasi

Madaniyatning o'ziga xos geografik ko'rinishi – bu **til** hisoblanadi. Til insoniyat madaniyatidagi mavjud aloqa vositasidir. U guruh a'zolarini bir-birlari bilan o'zaro cheksiz xabarlashish imkonini beradi. Biroq, u bir til guruhi a'zolarini boshqa til guruhi a'zolari bilan xabarlasha olmasliklariga ham sabab bo'ladi. Bugungi kunda shevalarni hisobga olmaganda deyarli 3 mingta tilda gapiriladi.

Madaniyat geografiyasi aholi so'zlashuvida mavjud bo'lgan til oilalarini ham o'rganadi. Yer shari aholisi quyidagi til oilalariga mansub:

1. Ural tillari oilasi – Rossiyaning Yevropa qismlari va Sibir xalqlari.
2. Oltoy tillari oilasi – Turklar, mo'g'ullar, O'rta Osiyoning Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston kabi davlatlar xalqlari.
3. Xitoy – Tibet tillari oilasi -Sharqiy va Janubiy Osiyo xalqlari.
4. Malayziya tillari oilasi – Hind va Tinch okeanidagi xalqlar.
5. Dravit tillari oilasi – Hindiston xalqlari.

6. Monxmer tillari oilasi – Hindixitoy mamlakatlari xalqlari.
7. Semit, hamit tillari oilasi – Janubi-g‘arbiy Osiyo va Afrika, shimoliy arab xalqlari.
8. Bantu tillari oilasi – Afrikaning janubiy xalqlari.

Til madaniyatning muhim, ammo ilmiy qoidalariga mos kelmaydigan bir elementidir. U aholining ba’zi bir qismini bog‘laydi, ammo boshqa qismlarini ajratadi. U joylardagi o‘zgarishlar va rivojlanishlar tezligini, o‘zgarimas madaniy ko‘rinishlarini ko‘rsatadi.

Madaniyat geografiyasining ikkinchi muhim tarmog‘i bu **din geografiyasidir**. Ma’lumki, din - tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo‘lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to‘g‘ri, haqiqiy, odil hayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta’limotidir. Din so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi „ishonch“, „e’tiqod“ deganidir. Istilohiy ma’nosi lotin tilidagi “religion” so‘zi bilan mos keladi. Din insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganlik va aholining bilim darajasi katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo aholisining diniy tarkibi juda murakkab va xilma-xildir. Diniy mintaqalar sivilizatsiyalar evolyutsiyasi davomida shakllanib kelgan. Dinlarning yirik tipologiyasi ikki qismga ajratiladi: tarixiy-geografik va etnik tasnif.

Shuningdek madaniy geografiyaning yana bir muhim tarmoqlaridan biri bu – **ta’lim geografiyasidir**. Ta’lim geografiyasi insoniyatning yuksalishi va jamiyatning rivojlanishi uchun tabiiy zaruriyat bo‘lgan ma’rifiy salohiyatning turlari, tarkibi, tuzilishi va ularning hududiy tashkil etilganligi hamda rivojlanishini o‘rganadi. Ta’lim geografiyasining o‘rganish obyekti – biron bir hudud, makondagi ta’lim tizimlari hisoblanadi.

XULOSA

Tibbiyot geografiyasi ham shuningdek madaniy geografiyaning muhim tarmoqlaridan yana biri hisoblanib, inson salomatligi va turli xil kasalliklarning vujudga kelishiga ta’sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatlari va xususiyatlarini o‘rganadi. Nazariy jihatdan tibbiyot geografiyasi tibbiyot va geografiya fanlarining tegishli qismlariga asoslanadi. Tibbiyot geografiyasi kasalliklarni davolamaydi, aniqlamaydi, ushbu fanning bosh vazifasi kasalliklarning vujudga keltiruvchi tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning hududiy jihatlarini tahlil etish hamda baholashdan iboratdir. Bundan tashqari madaniy geografiyaning – etnogeografiya, iste’mol geografiyasi, ma’naviy madaniyat geografiyasi, xulq-atvor geografiyasi, turmush-tarzi geografiyasi, qashshoqlik geografiyasi kabi tarmoqlari mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Komilova N.Q., Oblaqulova H.A. “Madaniy geografiya” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent “ZEBO PRINT”, 2021. -184 b.
2. Nosirkhonov, N. N., & Yunusova, G. D. (2022). Explicit methods of expressing please speech acts in Korean. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 44-50.
3. Christian Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America: Green Edition. -2012.
4. Mirkomil, G., & Bakhtiyor, Z. (2020). METHODS OF STUDYING THE LANDSCAPES AROUND THE AYDAR-ARNASAY LAKE SYSTEM. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(7), 5-5.
5. A.Soliyev. “Hududiy majmualarning nazariy asoslari” o‘quv qo‘llanma. – Toshkent “Universitet”, 2007.
6. Mardievna, B. M., Mukhamadjanovna, J. S., Nematovich, N. O., & Azamovich, T. V. (2020). The importance of modern methods and technologies in learning English. *Journal of critical reviews*, 7(6), 143-148.
7. Muhamadovich M. A. et al. DEVELOPMENT OF MIDDLE CITIES IN ZARAFSHAN REGION //EPRA International Journal of Research & Development (IJRD). – 2021. – T. 6. – №. 12. – C. 1-1.
8. Karimov, N. (2022). THE CENTRAL ASIAN RENAISSANCE OF THE IX-XII CENTURIES IN THE EYES OF FOREIGN RESEARCHERS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 28-45.